



O'ZBEK MILLIY URF-ODATLARINING O'ZBEK NASRIY  
ASARLARIDAGI BADIY TALQINI ("IKKI ESHIK ORASI"  
ROMANI MISOLIDA)

**Kamilov Miraziz Murodulla o'g'li**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili va  
adabiyoti ta'limi fakulteti

kamilovmiraziz1999@gmail.com

**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 10- July 2023 yil

Ma'qullandi: 15- July 2023 yil

Nashr qilindi: 20-July 2023 yil

**KEY WORDS**

milliy qadriyat, urf-odat, folklor,  
"Ikki eshik orasi", "O'tkan kunlar",  
epizod, syujet, badiiy komponent,  
"yor-yor", verbal komponent,  
hududiy qadriyatlar.

**ABSTRACT**

*Maqolada o'zbek milliy urf-odat va an'alarining nasriy asarlardagi badiiy talqini hamda ularning asar mazmunini yuzaga chiqarishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Bunda obyekt sifatida O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani tanlangan. Asardagi marosim folklori namunalari aks etgan lavhalar asar umumiy syujetida qanday o'rin tutgani ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Har bir davr adabiyotining asosiy xususiyatlarini belgilovchi yetakchi estetik xossalaridan biri uning xalq hayoti bilan bevosita bog'liqligidir. Yozma adabiyotning ibtidosi xalq og'zaki poetik ijodiyoti orqali o'sha millatning qadim ajdodlari yaratgan asotirlarga borib taqaladi. Shuning uchun ham adabiyotning folklor bilan ijodiy aloqalari xususida to'xtalganda dastavval adiblarning folklordan ijodiy foydalanish an'anasi ko'zda tutiladi. Bizga ma'lumki, yozuvchining folklordan, uning eng yaxshi an'alaridan oziqlanishini o'rganish adabiyotshunoslikning doimiy mavzularidan bo'lib kelgan. Chunki folklor va yozma adabiyotning uyg'unlashuvi har bir ijodkor ijodida o'ziga xos tarzda ko'rinadi. O'zbek adabiyotining yetuk yozuvchilaridan biri O'tkir Hoshimov ijodida, ayniqsa, bunday uyg'unlik yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari yozuvchi qalbiga qanchalik chuqur o'rnashib qolganligi va ular adib ijodida muhim ma'naviy xazina rolini o'ynaganligi, asar kompozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qilganligini "Ikki eshik orasi" asari misolida ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalq qo'shiqlari adibning nasriy asarlarida qahramonlarning ruhiy holatini, ularning qalb iztiroblarini ifodalab kelgan. Adib o'zi yozadigan mavzuni butun vujudibilan his qilsagina, kitobxonni ham beixtiyor hayajonga sola oladi. Bu borada adibning o'zi quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: "Badiiy ijodning oddiy bir sharti bor. Agar qahramon kitobxonning ko'z o'ngida tirik odam bo'lib jonlanmasa, boshqacharoq qilib aytganda, kitobxonni o'zining quvonchlariga, tashvishlariga, tuyg'ulariga sherik qilmasa, yozuvchi har qanday muhim masalalarni o'rtaga qo'ysa ham, har qanday dono fikrlarni aytsa ham, kitobxon ishonmaydi<sup>1</sup>".

Yozuvchi fikrlarining tasdig'ini uning asarlarida aniq ko'rish mumkin. Xususan, "Ikki eshik orasi"ni o'qir ekanmiz, Oqsoqol, Qora amma, Husan duma, Shomurod, Muzaffar, Robiya

<sup>1</sup> Haqiqiy asar yozilmaydi, tug'iladi. M. Imomkarimovanning O'. Hoshimov bilan qilgan suhbatini // O'zbekiston ovozi. 2001. 14 avg.

siymolari butun o'y-xayollari-yu tashvishlari bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bunga sabab, albatta, oddiy sodda tildagi badiiy tasvir bilan birga kitobxonga tanish bo'lgan o'zbekona milliy ruh, har birimizga xos bo'lgan milliy dunyoqarash va millat kishilariga xos bo'lgan mentalitet ifodasidir.

N. Shukurov mazkur roman xususida shunday deb yozgan edi: "Ikki eshik orasi" dagi har bir voqea syujetning zarur qismi sifatida keladi. Kitobxon asarning oldingi sahifalarida berilgan voqealar oqimining bevosita ishtirokchisi bo'lganligi tufayli kutilayotgan voqeaning ifodasiga aylanadi. Shu bilan birga har bir voqea asardagi obrazlar xarakterini namoyon qiluvchi ko'zgu rolini o'taydi<sup>2</sup>".

Olim aytgan badiiyat ko'zguna voqealar rivoji milliy qadriyatlarimiz bilan bevosita uyg'unlashgan holda ko'zga yanada yaxshiroq va sirliroq bo'lib ko'rinadi.

To'y marosimi bilan bog'liq qadriyatlar asarning to'laqonli chiqishini ta'minlagan muhim badiiy vosita hisoblanadi. Roman bilan tanishganimizda milliy qadriyatlar va urf-odatlarining qadimiy shakllarining o'ziga xos badiiy talqinlariga guvoh bo'lamiz. Jumladan, to'n kiydirish, gulxan atrofidan aylantirish, kelin va kuyovning qo'lga yosh bolani tutqazish kabi udumlarning badiiy tasvirlari xalqimiz orasida ming yillar davomida an'ana bo'lib kelgan hayotiy haqiqat yozuvchi mahorati tufayli badiiy haqiqatga aylanganligini ko'rsatadi. Bu udumlarning har biri chinakamiga xalqona odatlar sirasiga mansub bo'lib, har biri o'z tarixi va tadrijiy rivojiga ega. Asarda umri uzun odatlar shunday bayon etilgan. Kichkina Muzaffar hikoyasi orqali ko'z o'ngimizda cho'loqlanib kelayotgan Shomurod obrazi gavdalanadi:

"Dadamning yonida kelayotgan Ilhom choyxonachi qo'ltig'iga qistirib olgan to'n qatini ochdi.

– Kiyib oling, kuyov bola! – Dadam iljayib, qo'lini orqasiga qilib turdi. Beqasam to'nni kiygizishdi-da, yetaklab gulxan yoniga olib kelishdi.

Dadam qaddini g'oz tutib boryapti. Cho'loqlanishiyam sezilmaydi. Ko'zi tushib qolarmikan, degan umidda yaqin borgan edim, qandaydir notanish xotin yelkamga turtdi.

– Qoch, o'ralashma!

Dadamni alanga atrofidan uch marta aylantirishdi. Kimdir eski kursi keltirib gulxan yaqiniga qo'ydi. Yana bir odam do'ppisiga ukpar qadalgan kichkina bolani dadamning tizzasiga o'tqazdi. O'sha zahoti quloqni yorgudek bo'lib childirma bakka-banglab ketdi<sup>3</sup>".

Ko'rinib turibdiki, "alanga" olovga sig'inish bilan bog'liq, bola esa kelin-kuyovning kelajakda farzandli bo'lishiga ishora. To'n esa milliy e'tiqodlari, imoni butunligidan nishona tarzida o'z o'rniga ega bo'lgan odatlarning mohiyatiga borib bog'lanadi.

**"Surnay sho'x-sho'x kuy chaldi. Isiriq hidi keldi"**. Bu tasvir ko'z tegish, kinna kirish kabi irimlar bilan bog'liq bo'lgan ishonchlardir.

**"Yursang-chi, tortishmachoq ko'ramiz"**. Bu odat ham boshqa millatning to'y marosimlaridan farq qiladi. O'zbekning to'yida ko'pincha ko'pkari, kurash, tortishmachoq, so'z o'yini, aytishuv kabi o'yinlar o'ynaladi. Muzaffar o'z kuzatishini hikoya qilishda davom etadi. "Kuyov tomon bilan bellashaman deganlar bormi? U kattakon chorsi qiyiqchanning bir uchidan tutib silkitdi. Besh-olti xotin Abduvalining oyisidan keyin safga tizildi. Xuddi poyezdga o'xshab, bir-birining belidan quchoqlab olishdi. Kelin tomondan ko'krak burma ko'ylak kiygan

<sup>2</sup> Shukurov N. Tutash taqdirlar. Dunyoning ishlari//Guliston. 1992. №3.

<sup>3</sup> Hoshimov O'. Umr savdosi. Ikki eshik orasi. -T.: Sharq, 1993. 104 b.

gavdali xotin o'rtaga chiqdi. Abduvalining oyisi tutib turgan qiyiqchanning narigi chetidan ushladi.

– Biz-da, o'sha bellashadigan<sup>4</sup>”.

Bu odat kelin va kuyov qadri va sha'ni uchun bo'lgan kurash hisoblanadi. Bunda or-nomus haqida gap ketadi. Bu odat bugungi kunda boshqacharoq ko'rinish kasb etgan. Qiyiqchani ayollar kuyovning uyida emas, balki kuyovjo'ralari kelinning uyida kelin tomon yigitlari bilan tortishadilar. Buni “poyondozi” deb atashadi. Kuyov kelin uyining ostonasidan kirishda uning oyog'i ostiga to'shalgan poyondozi o'rtada talash bo'ladi va qaysi tomon g'olib hisoblansa, o'z or-nomusi bilan baland turgan bo'ladi. Shu bois bu odat keskinlashib, janjalga bormasligi uchun qiyiqcha qirqib qo'yiladi. Qarabsizki, ikki tomon ham qiyiqcha parchalariga ega bo'ladi. Yozuvchi bu udumni asar voqealarini ishonarli chiqishi uchun syujet tizimiga olib kirgan. Bu udumning muayyan tarixiy asoslari mavjud. Chunki nikoh to'yida o'tkaziladigan bunday tortishuvlar ramziy xarakterga ega bo'lib, qadimiy nikoh marosimlaridagi sinov udumlarining rivojlanishi natijasida kelib chiqqan. Qadimgi oilaviy-maishiy odatlardan biri – Endogam nikoh udumiga ko'ra bir qabila ichidan uylanish rasm bo'lmagan, shuning uchun ham yigitlar o'zga qabiladan qiz olganlar<sup>5</sup>.

Boshqa qabiladan kelin olayotgan tomon o'sha tarafning ma'lum bir shartlarini bajargandan keyingina kelinni olib ketish huquqiga ega bo'lgan. Lapar, o'lan kabi aytishuvlar, tortishmachoq, oyoq bosar, belbog'yechar, yo'l to'sdi kabi udumlar ana shu qadimiy nikoh udumlari asosida yuzaga kelgan.

Milliy qadriyatlarimizning ma'lum bir yillar tahqirlanganligi, qora dog'larga bo'yalganligi sir emas. Lekin istiqloq tufayli ulug'lanayotgan bugungi kunda ham yetmish yillik mafkuraviy tuzum ta'siri hali-hanuz yo'qolmaganligiga iqror bo'lamiz. Bu borada kuyinchaklik bilan fikr bildirgan A. Berdiyev shunday degan edi:

“– Afsuski, ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlardan uzoqlashish bor. Bunga birinchi galda ota-ona, oila aybdor. Axir qush uyasida ko'rganini qiladi, deyishadi-ku! Lekin ishonch bilan aytish mumkin, havas qilsa arzugulik qadriyatlarimiz bor<sup>6</sup>”. Endi adabiyotshunos S. Mamajonovning shu masala xususidagi fikrlariga e'tibor beraylik. “Yozuvchi xalqimiz ma'naviyatidagi boqiy qadriyatlarni insondagi ulug' niyatlar, orzu-armonlarga, ezgulik va yaxshilikka bo'lgan buyuk e'tiqodni mehr muhabbat bilan, ehtiros bilan himoya qiladi, ko'z-ko'zlaydi, tashviq etadi<sup>7</sup>”.

O'. Hoshimov o'ziga tanish, o'z ruhiy olamiga yaqin bo'lgan udumlarni, o'zi yoshligida ko'rgan-bilgan an'analarni, ayniqsa, Toshkent shahri va viloyatida mavjud bo'lgan marosim va asriy odatlarni o'z asariga olib kirdi. Xususan, “Ikki eshik orasi” romanida adib o'zi tug'ilib-o'sgan yurtning milliy qadriyatlari haqida atroflicha to'xtaladi. Lekin bu asarni qaysi o'lka kishisi o'qimasin, uning ko'z oldiga o'z yurtining boqiy urf-odatlar keladi. Asarda keltirilgan bir parchada toshkentlik kelin shunday tasvirlanadi: “Toshkentli kelin ikki bukilib salom qildi. Barmoq uchiga piyola qo'ndirib, choy uzatdi. Xotin-xalaj “bir qoshiq suv bilan yutguli” kelinni “qo'sha-qaringlar, qo'chqorday o'g'illar bersin”, deb duo qildi<sup>8</sup>”.

<sup>4</sup> Hoshimov O'. Umr savdosi. Ikki eshik orasi. -T.: Sharq, 1993. 109 b.

<sup>5</sup> Egamov X. Sovet Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an'analari aloqalari tarixidan ocherklar/ -T.: Fan, 1980. B. 304.

<sup>6</sup> Berdiyev A. Yaxshi ijodkor hech bir qolipga tushmaydi. // Darakchi. 2000. 30 dek.

<sup>7</sup> Mamajonov S. E'tiqod // O'zbekiston ovozi. 1991. №3. 9 noyabr.

<sup>8</sup> Hoshimov O'. Umr savdosi: Ikki eshik orasi. -T.: Sharq, 1993.B. 367.

Bu tasvirda yozuvchi toshkentliklarning an'anaviy urf-odatlariga, ya'ni piyolani barmoq uchida tutib choy uzatish odatiga alohida urg'u beradi. Yozuvchi chuqur samimiyat bilan tasvirlagan bu odat boshqa vohalarda qo'llanilmaydi. "Kelin salom" ham turli viloyatlarda turlicha o'tkaziladi, masalan, Surxondaryoda kelin ro'molchali qo'li bilan og'zini yopib, ikki yonga tebranib salom beradi. Samarqandda kelin dastro'molchali qo'lini yuzi bo'ylab harakatlantirib, o'tirganlarga salom soladi. Xorazmda esa ikki qo'li bilan o'z sonlarini uch marta silaydi.

"Ikki eshik orasi" romanidagi bu lavha toshkentliklarning nikoh to'yi marosimi tarkibiga mansub bo'lgan "kelin salom" udumining ifodasidir. Xuddi shunday salomlashish shakli, ya'ni "kelin salom" udumi tarkibida bajariladigan an'anaviy odatlardan birining badiiy talqini atoqli adib A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi Zaynab obrazi tasvirida ko'rinadi. Unda ham qahramon choyni barmoq uchida tutib, o'rnidan turib Otabekka uzatadi. Yana bir odat, ya'ni kelin kelgan xonadonga qo'ni-qo'shnilarning tomoshaga bemalol kirib kelaverishi ham Toshkentda urf bo'lgan udumlar sirasiga kiradi. Lekin aytib o'tish kerakki, mamlakatimizning ko'pgina joylarida yangi tushgan kelinning uyi "chillalik" hisoblanib, unga begonalarining kirishi man etiladi.

O'. Hoshimov milliy urf-odatlarimizning rang-barang ko'rinishlarini asarga olib kirar ekan, Muzaffar hikoyasidagi quyidagi tasvirlarni ko'rishimiz mumkin. Shu topda u asar qahramonigina emas, kuzatuvchi yozuvchi vazifasini ham bajaradi: "Hushimni to'plab olganimda dadam Robi opamni belidan quchoqlab dast ko'tardi. Robi opamni ko'targancha palak orqasiga o'tib g'oyib bo'ldi". Bu tasvir kelin va kuyovning chimildiqqa kirish odati. "Xotinlar to'rt tomonda tizilishib o'tirar, har kim o'ziga tekkan "to'qqiz-to'qqiz"ni tugish bilan ovora edi"<sup>9</sup>, - deyishi ham an'anaviy odatlardan biri - "to'qqiz-to'qqiz" udumining ifodasi hisoblanadi. Bu odat o'zbeklar orasida qadimdan an'ana bo'lib kelgan. To'ydan oldin kelinning uyiga kuyov tomonidan sovg'a-salomlar, to'ylik narsalar yuboriladi. Bu odat "to'qqiz-to'qqiz" deb ataladi. Ayrim qishloqlarda esa bu alohida marosim ko'rinishini olgan bo'lib, "to'qqiz to'yi" deyiladi. An'anaga ko'ra, ko'pchilik joylarda "to'qqiz-to'qqiz" udumi chimildiq ichida yoki kuyovnavkarlar kelinnikiga kelganida bajariladi. Kuyovnavkarlarning oldiga to'qqiz xil taom qo'yish rasm bo'lgan. Ba'zan taomlar to'qqizta tovoqda qo'yilgan. Kuyov jo'ralar bu taomlarni yegach, tovoqlarga tanga-pul tashlaganlar.

O'tkir Hoshimovning asarida esa bu odatning Toshkentda ommalashgan ko'rinishi badiiy ifoda etilgan. Bu udumga ko'ra to'yga kelgan mehmon ayollar to'yxonadan yaxshi niyat qilib o'z ulushlarini olib ketadilar.

O'. Hoshimov xalqimizning milliy an'analari, marosim va udumlari, odat va irimlarini tasvirlashda muayyan bir izchillikka rioya qilgan. Ana shu izchillik esa an'analari talqinining hayotiyliigi va tabiiyligini ta'minlagan. Har bir udumning asarda o'z o'rnida, muayyan badiiy niyat bilan bevosita bog'liq holda berilishi ham adibning milliy qadriyatlar tabiatini yaxshi bilishini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Berdiyev A. Yaxshi ijodkor hech bir qolipga tushmaydi. // Darakchi. 2000. 30 dek.
2. Egamov X. Sovet Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an'analari aloqalari tarixidan ocherklar/ -T.: Fan, 1980.

<sup>9</sup> Hoshimov O'. Umr savdosi: Ikki eshik orasi. -T.: Sharq, 1993.B. 112.

3. Haqiqiy asar yozilmaydi, tug'iladi. M. Imomkarimovning O'. Hoshimov bilan qilgan suhbatini // O'zbekiston ovozi. 2001. 14 avg.
4. Hoshimov O'. Umr savdosi. Ikki eshik orasi. -T.: Sharq, 1993.
5. Mamajonov S. E'tiqod // O'zbekiston ovozi. 1991. №3. 9 noyabr.
6. Shukurov N. Tutash taqdirlar. Dunyoning ishlari//Guliston. 1992. №3.



**INNOVATIVE  
ACADEMY**